

DINLARARO MULOQOT VA TOLERANTLIK

Mustafayev Ulash Utayevich

Termiz davlat universiteti, Falsafa kafedrası dotsenti,

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent

ulashmustafojev1957@gmail.com

+998 90 076 95 57

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada dinlararo muloqot va tolerantlik masalalari keng yoritilgan. Unda turli din vakillari o'rtasida muloqot zarurati, tolerantlik g'oyasining mazmuni va tarixiy ildizlari, diniy bag'rikenglikning ijtimoiy hamda madaniy hayotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, UNESCO, BMT, YXHT, IHT kabi xalqaro tashkilotlarning dinlararo muloqotni rivojlantirishdagi o'rni, O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo hamkorlik tajribasi misolida ko'rsatib o'tiladi. Maqola yakunida dinlararo muloqot orqali komil insonni tarbiyalashning nazariy va amaliy jihatlari asoslab beriladi. Ushbu tadqiqot tinchlik, o'zaro hurmat va madaniyatlararo hamjihatlikni mustahkamlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: dinlararo muloqot, tolerantlik, diniy bag'rikenglik, konfessiyalararo hamkorlik, UNESCO, BMT, YXHT, IHT, O'zbekiston tajribasi, komil inson, tinchlik, hurmat, madaniyatlararo muloqot.

ABSTRACT

This paper explores the issues of interfaith dialogue and tolerance in depth. It analyzes the necessity of dialogue among representatives of different religions, the meaning and historical roots of the idea of tolerance, and the social and cultural significance of religious tolerance. The study also highlights the role of international organizations such as UNESCO, the UN, the OSCE, and the OIC in promoting interfaith dialogue, as well as the experience of Uzbekistan in fostering religious tolerance and inter-confessional cooperation. In conclusion, the theoretical and practical aspects of educating a morally mature (perfect) person through interfaith dialogue are substantiated. This research has significant scientific and practical value in strengthening peace, mutual respect, and intercultural harmony.

Keywords: interfaith dialogue, tolerance, religious tolerance, inter-confessional cooperation, UNESCO, UN, OSCE, OIC, Uzbekistan's experience, perfect person, peace, respect, intercultural dialogue.

АННОТАЦИЯ

В данной работе подробно рассматриваются вопросы межрелигиозного диалога и толерантности. Анализируется необходимость диалога между представителями различных религий, содержание и исторические корни идеи толерантности, а также социальное и культурное значение религиозной терпимости. Особое внимание уделено роли таких международных организаций, как ЮНЕСКО, ООН, ОБСЕ и ОИС, в развитии межрелигиозного диалога, а также опыту Узбекистана в укреплении религиозной терпимости и межконфессионального сотрудничества. В заключение обоснованы теоретические и практические аспекты воспитания совершенной (гармонично развитой) личности посредством межрелигиозного диалога. Данное исследование имеет важное научное и практическое значение для укрепления мира, взаимного уважения и межкультурного согласия.

Ключевые слова: межрелигиозный диалог, толерантность, религиозная терпимость, межконфессиональное сотрудничество, ЮНЕСКО, ООН, ОБСЕ, ОИС, опыт Узбекистана, совершенный человек, мир, уважение, межкультурный диалог.

KIRISH (INTRODUCTION)

Jamiyat muloqotlar orqali rivojlanib boradi. Muloqot jamiyat taraqqiyotining birinchi va asosiy mezonini sanaladi. Muloqot ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasida axborot va tajriba almashuvi jarayonidir. Muloqot tufayli tashkilotlar va institutlar g'oyalari, muammolari va ularning yechimlari bilan o'rtoqlashadi. Muloqot jamiyatda yozma yoki og'zaki hamda sun'iy tillar bilan amalga oshiriladi. Bugungi globalashuv jarayoni shaxslaro, tashkilotlararo va davlatlararo muloqotga ehtiyojni oshirib yubordi.

Ayniqsa, bugun dinlararo muloqot jamiyat taraqqiyoti va tinchlik uchun nihoyatda zarur. Dunyoda mingdan oshiq diniy e'tiqodlar mavjudligi hamda besh mingdan ortiq diniy sektalar faoliyat yuritayotganligi va ayrim diniy e'tiqod jamoa va sekta a'zolari e'tiqodidagi g'arazli talqinlar dinlararo muloqotga ehtiyojni oshirmoqda.

Islom dini tinchlik va barqaror taraqqiyot uchun dinlararo muloqot va tolerantlikni qadriyat sifatida ulug'lab kelgan. Islom so'zi etimologiyasida tinchlik, ofatlardan saqlanish ma'nolari ham bor. Quro'ni Karimda shunday oyat bor. "...Alloh esa, fasodni (buzg'unchilikni) yoqtirmaydi"¹. Buzg'unchilik deyarli barcha transsendent dinlarda qoralanadi. Jumladan, xristianlik dini va uning muqaddas kitobi bo'lgan Bibliyada "Insonning ichidan chiqadigan narsalar insonni harom qiladi.

¹ Quro'ni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur. Toshkent: -2018 Baqara surasi 205-oyat. 32 bet.

Chunki ichdan, y'ni inson qalbidan yomon fikrlar, fahsh, o'g'irlik, qotillik, zino, makkorlik, shahvat, hasad, tuhmat, manmanlik, va nodonlik chiqadi. Ana shu yomonliklarning hammasi insonning ichidan chiqib, uni harom qiladi.”² Demak, bunday g'arazli fikrlar dinlararo muloqotni va tolerantlikni buzadi va jamiyat taraqqiyotiga hamda barqaror rivojlanishga halaqit beradi.

Dinlararo muloqot - bu turli din va konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, tushunish, hamkorlik va tinch-totuv yashashni ta'minlashga qaratilgan fikr almashuv, suhbat va hamkorlik jarayonidir. U nafaqat diniy, balki madaniy, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni yaqinlashtiruvchi muhim ijtimoiy hodisadir.

Dinlararo muloqotning maqsadi-tinchlik va barqarorlikni ta'minlash -turli din vakillari o'rtasida adovatni emas, tinchlikni qaror toptirish. O'zaro hurmatni mustahkamlash - har bir e'tiqodga hurmat bilan qarash, diniy farqlarni emas, umumiy insoniy qadriyatlarni ilgari surish. Diniy bag'rikenglikni rivojlantirish -e'tiqod erkinligi va vijdon ozodligini ta'minlash. Ekstremizm va diniy nizolarning oldini olish -radikal qarashlarga qarshi ma'rifat asosida kurashish. Global madaniy hamkorlikni kuchaytirish - xalqlar o'rtasida do'stlik, madaniy almashinuv va tinch hamkorlikni rivojlantirish.

Dinlararo muloqotning asosiy vazifalari- diniy tashkilotlar o'rtasida aloqa va hamkorlikni yo'lga qo'yish. Tolerantlik va insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilish. Diniy ekstremizm, radikalizm va terrorizmga qarshi ma'naviy-ma'rifiy faoliyat yuritish. Yoshlar orasida diniy savodxonlikni oshirish va diniy madaniyatni rivojlantirish. BMT, UNESCO, YXHT va IHT kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish. Ommaviy axborot vositalarida dinlararo totuvlik g'oyalarini yoritish.

Dinlararo muloqot - bu tinchlik, bag'rikenglik va insonparvarlikning amaliy ifodasi bo'lib, u jamiyatda diniy totuvlikni mustahkamlash, radikalizm va adovatni bartaraf etishning eng samarali yo'llaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (LITERATURE REVIEW)

“Dinlararo muloqot va tolerantlik” mavzusiga oid ilmiy, falsafiy va diniy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu masala zamonaviy global dunyoda ijtimoiy barqarorlikning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Qur'oni karim va hadislar asosida bag'rikenglik, insonlar o'rtasida tinch-totuv yashash, diniy erkinlik g'oyalari asoslab berilgan. Jumladan, Baqara surasining 256-oyatida “Dinda zo'rlash yo'q” degan oyat, Kofirun surasining 6-oyatida esa “Sizga o'zingizning diningiz,

² Muqaddas kitob.Toshkent 2018.Mark injili. Insonni nima harom qiladi? 7:18 1210- bet.

menga o‘zining dinim”³ degan so‘zlar diniy tolerantlikning Qur‘oniy asosini belgilaydi.

Mumtoz islom mutafakkirlari -Imom G‘azzoliy, Abu Hasr Forobiy, Ibn Sino, Zamaxshariy kabi allomalar ham insoniyat birligi, aql va e‘tiqod uyg‘unligi, axloqiy bag‘rikenglik g‘oyalarini ilgari surganlar. Ularning asarlarida muloqot, tushunish va murosaning inson kamoloti uchun zarurligi ta‘kidlanadi.

Zamonaviy g‘arb va sharq olimlari - H. Kung, J. Hick, S. Huntington, M.Asad, A. Toynbi singari mutafakkirlar esa dinlararo muloqotni global xavfsizlik, madaniyatlararo hamkorlik va tinchlikni saqlashning muhim omili sifatida ko‘rsatadilar.

O‘zbekiston Respublikasida ham bu yo‘nalishda qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning asar va nutqlarida diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, vijdon erkinligini ta‘minlash masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Shuningdek, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatlari orqali dinlararo muloqot va tolerantlikka oid ilmiy-amaliy yo‘nalishlar mustahkamlanmoqda.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dinlararo muloqot va tolerantlik g‘oyalari diniy manbalar, falsafiy qarashlar va zamonaviy ijtimoiy-siyosiy amaliyotlarda o‘z ifodasini topgan, ular tinchlik, totuvlik va ma‘naviy taraqqiyotning poydevoridir.

Ushbu mavzuni yoritishda quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

- Tarixiy-tahliliy metod dinlararo muloqot va tolerantlik g‘oyalarining tarixiy shakllanishi, turli davrlardagi falsafiy va diniy qarashlarda ifodalanishi o‘rganildi.

- Qiyosiy metod - islom, nasroniylik, buddizm va boshqa dinlardagi bag‘rikenglik tushunchalari o‘zaro taqqoslandi.

- Falsafiy-tahliliy metod - tolerantlikning ontologik va axloqiy mohiyati tahlil qilindi.

- Sotsiologik va empirik metodlar -zamonaviy jamiyatda diniy muloqot darajasi va bag‘rikenglik madaniyatining shakllanishi haqida mavjud ijtimoiy tadqiqotlar o‘rganildi.

- Mantiqiy va tizimli yondashuv -mavzu bo‘yicha olingan ilmiy ma‘lumotlar o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi va xulosa chiqarildi.

Adabiyotlar tahlili va qo‘llanilgan metodlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, dinlararo muloqot va tolerantlik nafaqat diniy-axloqiy, balki ijtimoiy,

³ Quro‘ni Karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri.Shayx Abdulaziz Mansur.Toshkent:-2018 Baqara surasi 256-oyat.42-603 bet.lar

siyosiy va madaniy barqarorlikni ta'minlovchi global zaruratdir. Bu g'oyalar orqali jamiyatda tinchlik, totuvlik va o'zaro hurmat muhitini mustahkamlash mumkin.

NATIJALAR (RESULTS)

Dinlararo muloqot va tolerantlik masalasini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, bu hodisa zamonaviy jamiyatda tinchlik, barqarorlik va ijtimoiy birdamlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Diniy bag'rikenglik va totuvlik kuchaydi: O'zbekiston va ko'plab mamlakatlarda olib borilayotgan islohotlar natijasida turli din vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, tinch-totuv yashash, din va vijdon erkinligi tamoyillari mustahkamlanmoqda. Har bir fuqaroning o'z e'tiqodini erkin tanlash huquqi kafolatlanib, din davlatdan ajratilgan holda, lekin jamiyat hayotining ma'naviy asoslaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi mafkuraviy immunitet shakllanmoqda: Dinlararo muloqot orqali ekstremistik g'oyalar, diniy adovat, millatlararo nizo va ksenofobiyaga qarshi ma'rifiy yondashuv kuchaymoqda. Yoshlar o'rtasida diniy savodxonlik oshirilib, sog'lom dunyoqarashni shakllantirishda diniy tashkilotlar, OAV va ta'lim muassasalari faol ishtirok etmoqda.

Xalqaro hamkorlik tizimi kengaydi: BMT, YUNESKO, YXHT, Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro institutlar doirasida yangi O'zbekistonning tolerantlik va dinlararo muloqot tajribasi e'tirof etilmoqda. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlarda o'tkazilayotgan xalqaro konferensiyalar, diniy forumlar va ilmiy anjumanlar bu sohada ijobiy natijalar berdi.

Ilmiy-nazariy asoslar boydii: Dinlararo muloqot va tolerantlik g'oyalari Qur'oni karim, hadislar hamda islom falsafasi asosida ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilinmoqda. Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, imom G'azzoliy, Ibn Sino, Zamaxshariy singari mutafakkirlarning asarlari zamonaviy kontekstda qayta o'rganilib, diniy hamjihatlik falsafasi shakllantirildi.

Jamiyatda madaniy hamjihatlik muhitini mustahkamladi: Dinlararo muloqot natijasida millatlararo do'stlik, madaniyatlararo aloqalar va insoniy qadriyatlarga hurmat yanada kuchaydi. Tolerantlik jamiyatda inson huquqlarini e'zozlash, adolat va tinchlikni qadrlash, ijtimoiy birdamlikni saqlashda asosiy mezonga aylandi.

Ta'lim va tarbiya tizimida bag'rikenglik g'oyalari shakllanmoqda: Maktab, kasb – hunar, texnikum va oliy ta'lim muassasalarida “Jaholotga qarshi ma'rifat”, “Millatlararo totuvlik”, “Dinlararo muloqot madaniyati”, “Tolerantlik asoslari” kabi mavzularda darslar, seminar va ochiq muloqotlar tashkil etilmoqda. Bu esa yosh avlodda muros, sabr, hurmat va bag'rikenglik fazilatlarini tarbiyalamoqda.

Dinlararo muloqot va tolerantlik bo'yicha olib borilgan nazariy hamda amaliy izlanishlar natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, bu jarayon: tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim ijtimoiy mexanizmga aylandi; diniy adovat o'rniga o'zaro hurmat va hamkorlik tamoyillarini qaror toptirdi; insoniyatning ma'naviy birligini ta'minlash yo'lida samarali falsafiy va ma'rifiy poydevor yaratdi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Bugungi globallashuv davrida insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri turli din vakillari o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlikni ta'minlashdir. Dunyoda yuzlab din va e'tiqod tizimlari mavjud bo'lib, ularning barchasi insonni ezgulikka, tinchlikka va axloqiy poklikka da'vat etadi. Shu sababli ular o'rtasida muloqot o'rnatish zamonaviy jamiyat barqarorligining muhim omilidir.

Muloqot zaruratining mohiyati: Turli din vakillarining o'zaro muloqoti bu faqat diniy suhbat emas, balki insoniyatning tinch hayoti, millatlararo totuvlik va barqarorlikni saqlashga qaratilgan ma'naviy jarayondir. Islom dini ham bu borada aniq yo'l-yo'riq beradi. Qur'oni karimda aytiladi: "Ey insonlar! Darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havo)dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishishingiz uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila (elat)lar qilib qo'ydik. Albatta, Alloh nazdida eng (azizu) mukarramrog'ingiz taqvodorrog'ingizdir."⁴ Bu oyat barcha insonlar tengligini, diniy, irqiy yoki milliy tafovutlardan qat'i nazar, o'zaro hurmat zarurligini bildiradi.

Muloqotning asosiy sabablari: Turli din vakillari o'rtasida muloqot zarurati quyidagi omillar bilan izohlanadi: Tinchlikni saqlash va adovatning oldini olish tarixda diniy nizolar ko'plab fojialarga sabab bo'lgan. Muloqot bu kabi to'qnashuvlarning oldini oladi. Diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash hamkorlik orqali yoshlar ongida sog'lom diniy dunyoqarashni shakllantirish mumkin. Inson huquqlari va vijdon erkinligini ta'minlash har bir shaxsning e'tiqodini erkin tanlash huquqini hurmat qilish. Madaniyatlararo almashinuvni rivojlantirish turli dinlar o'rtasida ma'naviy qadriyatlar almashinuvi insoniyatning boyligidir. Global muammolarni birgalikda hal qilish ekologiya, tinchlik, ijtimoiy adolat kabi masalalarda dinlar o'zaro hamkorlik qilishi zarur.

Muloqotning ijtimoiy ahamiyati: Dinlararo muloqot bu jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik va totuvlikning kafolati. O'zbekiston misolida aytganda, mamlakatimizda 16 ta diniy konfessiyalar faoliyat yuritadi va ular o'rtasida do'stlik va hurmat muhiti

⁴ Quro'ni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur. Toshkent: -2018 Hujuror surasi 13-oyat. 517-bet

mavjud. Davlat siyosati ham aynan “tolerantlik” va “dinlararo totuvlik” tamoyillariga asoslanadi.

Muloqotning natijaviy yo‘nalishlari: Turli din vakillari o‘rtasidagi samarali muloqot natijasida, o‘zaro ishonch kuchayadi; diniy adovat o‘rnini hurmat va hamkorlik egallaydi; yosh avlodda bag‘rikenglik madaniyati shakllanadi; insoniyatning ma‘naviy birligi va tinch hayotga intilishi mustahkamlanadi.

Turli din vakillari o‘rtasida muloqot o‘rnatish bu diniy farqlarni yo‘qotish emas, balki ularni o‘zaro hurmat, tinchlik va hamkorlik orqali uyg‘unlashtirish demakdir. Bunday muloqot jamiyatda diniy tolerantlik, adolat va o‘zaro ishonch muhitini yaratadi hamda insoniyatni umumiy maqsad tinch va farovon hayot sari birlashtiradi.

Tolerantlik tushunchasining mazmuni: “Tolerantlik” so‘zi lotincha “tolerare” “chidamoq”, “sabr bilan qabul qilmoq” ma‘nolarini bildiradi. “Tolerant” so‘zi o‘zbek tiliga “bag‘rikenglik” deb tarjima qilinmoqda. Mazmunan u boshqa insonlarning fikri, e‘tiqodi, dini, millati va turmush tarziga hurmat bilan qarash, farqlarni to‘siq emas, boylik sifatida qabul qilish g‘oyasini anglatadi. Tolerantlik bu faqat sabr-toqat emas, balki insonlar o‘rtasida o‘zaro tushunish, hurmat va hamkorlikni rivojlantiruvchi ijtimoiy va axloqiy qadriyatdir. YUNESKO (1995 yil 16 noyabrda) tomonidan qabul qilingan “Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi”da bu tushuncha quyidagicha ta‘riflanadi: “Tolerantlik bu insonning o‘zgalarga bo‘lgan hurmati va ular bilan tinch-totuv yashashni o‘z ichiga olgan faol ijtimoiy pozitsiyadir.”

Tolerantlikning tarixiy ildizlari: Diniy manbalarda tolerantlik. Qur’oni karimda: “Dinda zo‘rlash yo‘q” (Baqara surasi, 256-oyat), “Sizga – o‘zingizning diningiz, menga o‘zimning dinim” (Kofirun surasi, 6-oyat) bu oyatlar diniy bag‘rikenglikning aniq asosidir.

Injilda: “O‘zgani o‘zingizni sevganday seving” (Matto 22:39) degan g‘oya xristianlikda tolerantlikning asosini tashkil etadi.

Buddizmda esa, insonlarga zarar yetkazmaslik, rahm-shafqat va tinchlik tamoyillari bag‘rikenglikning markazida turadi.

Sharq mutafakkirlarida tolerantlik: Sharq uyg‘onish davri allomalari tolerantlikni ma‘naviy kamolot va insoniyat birligi asosida tushuntirganlar:

Imom G‘azzoliy: insonning axloqiy pokligi va boshqalarga mehr bilan munosabatini asosiy fazilat deb bilgan.

Abu Nasr Farobiy: “Fozil shahar aholisining qarashlari” asari g‘oyasida tinchlik va murosani jamiyat barqarorligining negizi sifatida ta‘riflagan.

Mahmud az- Zamaxshariy: “Atvoq-uz-zahab fi-l mavoiz va-l-xutab” asarida o‘zaro hurmat, so‘zda va amalda adolatli bo‘lishni targ‘ib etgan.

Alisher Navoiy esa Xamsa asarida bag'rikenglik g'oyasini ilgari surgan bu ham tolerantlikning milliy falsafiy ildizidir.

G'arb falsafasida tolerantlik: Yevropada tolerantlik tushunchasi XVII–XVIII asr ma'rifatparvarlik davrida keng yoyildi. Jon Lokk “Diniy bag'rikenglik to'g'risida maktub” asarida e'tiqod erkinligini inson huquqi sifatida himoya qildi. Volter, Russo, Kant kabi faylasuflar ham turli fikr va e'tiqodlarni hurmat qilishni inson erkinligining asosi deb bildilar.

Tolerantlikning zamonaviy ahamiyati: Bugungi kunda tolerantlik - bu: Millatlararo totuvlikni saqlovchi ijtimoiy qadriyat; Dinlararo muloqotni rivojlantiruvchi g'oya; Ekstremizm va adovatga qarshi mafkuraviy himoya; Global tinchlikni ta'minlashning eng samarali yo'lidir.

O'zbekiston misolida, davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, bu esa tolerantlikning amaliy ifodasidir.

UNESCO BMTning Ta'lim, Bilim va Madaniyat tashkiloti 1946 yil 16 noyabrda tashkil topgan. Dinlararo muloqotni madaniyatlararo hamkorlikning ajralmas qismi sifatida rivojlantiradi. UNESCOning asosiy maqsad va vazifalariidan biri madaniyatlararo muloqot: Turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro tushunish va muloqotni kuchaytirishdir. Butunjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya YUNESKOning Bosh konferentsiyasi tomonidan 1972 yil 16 noyabrda qabul qilingan.

Buxoro shahrining tarixiy markazi (1993); Shahrisabz shahrining tarixiy markazi (2000); Ichan-Qala, Xiva shahri (1990), Samarqand - madaniyatlar chorrahasi (2001) - jahon madaniy merosining namunalari sifatida tan olingan.

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida “Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish UNESCO” kafedrasida 2000-yilning 14-16-sentyabr kunlari UNESCOning Toshkent islom universitetida bo'lib o'tgan “Jahon dinlari tinchlik madaniyati yo'lida” xalqaro kongressi doirasida tashkil etilgan. Uning ochilishida UNESCO Bosh direktori Koichiro Masuura ishtirok etgan. Hozirda «Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish UNESCO» kafedrasida dunyo bo'ylab tashkil etilgan 950 ta “UNITWIN/UNESCO Chairs” dasturiga kiruvchi kafedralardan biri hisoblanadi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2010-yilda “Dinlararo muloqot va o'zaro tushunishni mustahkamlash yili” deb e'lon qilinishi bu boradagi yirik tashabbuslardan biridir. BMT quyidagi yo'nalishlarda dinlararo muloqotni qo'llab-quvvatlaydi: “Alliance of Civilizations” (Madaniyatlar alyansi) – islom va g'arb dunyosi o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan global platforma;

“Human Rights Council” orqali diniy erkinlik va bag‘rikenglikni himoya qilish tashabbuslari; “World Interfaith Harmony Week” (Har yili fevral oyining birinchi haftasida) – barcha din vakillarining tinchlik va totuvlik yo‘lidagi hamkorligini targ‘ib etuvchi xalqaro tadbir.

UNESCOning asosiy tamoyili: “Tinchlik urush maydonlarida emas, inson tafakkurida yaratiladi.”

YXHT (Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti) doirasida dinlararo hamkorlik- diniy bag‘rikenglik bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Islomofobiya, antisemitizm va xristianofobiya qarshi kurash dasturlari; “Tolerance and Non-Discrimination Programme” (Bag‘rikenglik va kamsitmaslik dasturi) orqali diniy adovatni kamaytirish va o‘zaro ishonchni mustahkamlash.

IHT (Islom Hamkorlik Tashkiloti-1969-2011 y.) doirasida dinlararo muloqot-musulmon davlatlari o‘rtasida hamjihatlikni rivojlantirish bilan birga, islom dini asosida boshqa e‘tiqodlar bilan tinch-totuv yashashni targ‘ib etadi. Asosiy tashabbuslari: “Islamic Conference on Intercultural Dialogue” – islom va boshqa dinlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni chuqurlashtirish; IHT Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil komissiyasi – diniy erkinlikni himoya qiladi; “Musulmon va g‘arb dunyosi o‘rtasidagi muloqot” tashabbusi – islomofobiya va ekstremizmga qarshi mafkuraviy kurashni kuchaytiradi.

ICESCO - musulmon mamlakatlarida ta‘lim, fan, madaniyat va kommunikasiya masalalari bilan shug‘ullanuvchi, a‘zo davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan ixtisoslashgan tashkilotdir.

1981-yil 28-25-yanvar kunlari Makka shahrida bo‘lib o‘tgan uchinchi islom anjumanida qabul qilingan oliy qaror Islom hamkorlik tashkiloti qoshida “Ta‘lim, fan va madaniyati bo‘yicha islom tashkiloti” deb nomlangan qo‘shma islom ishchi-xodim organlari doirasida yangi xalqaro islom organi tashkil etilganligi o‘z tasdig‘ini topadi.

2020-yil 30-yanvarda Ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Islom tashkiloti (ICESCO) Ijroiya kengashi 2020-yil 29-30-yanvar kunlari BAAning Abu-Dabi shahrida bo‘lib o‘tgan qirqinchi sessiyasida tashkilotning yangi nomi — Ta‘lim, fan va madaniyat islom dunyosi tashkiloti (ICESCO) tasdiqlandi.

O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik konstitutsion kafolat darajasiga ega. U O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35,71,75-moddalarida o‘z ifodasini topgan.”Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi.”⁵ Bundan tashqari: Vijdon

⁵ <https://lex.uz/docs/-6445145>(Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)

erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun⁶ (yangi tahriri 2021-yilda qabul qilingan), “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi”⁷ (2020 yil), “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi”⁸ (2019-y.) kabi hujjatlar bag‘rikenglik siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamlaydi. O‘zbekistonning diniy bag‘rikenglik borasidagi ilg‘or tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan ham bir ovozdan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Misol uchun, 2018-yil 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan taklif etilgan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyaning qabul qilingani fikrimizning yaqqol isbotidir.

O‘zbekistonda diniy tashkilotlar faoliyati: Bugungi kunda, O‘zbekistonda 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2340 ta diniy tashkilot faoliyat yuritmoqda. Shundan, 2 144 tasi islomiy, 178 ta xristian diniy tashkiloti, 8 ta yahudiy, 7 ta bahoii jamoalari, 1 ta krishnani anglash jamiyati, 1 ta buddaviylar ibodatxonasi va 1 ta O‘zbekiston Bibliya jamiyati.

Diniy bayramlar keng nishonlanmoqda, xususan, musulmonlar tomonidan Ramazon va Qurbon hayitlari, xristianlar tomonidan Pasxa va Rojdestvo bayramlari, yahudiylarning Peysax, Purim va Xanuka bayramlari, bahoiylar, krishnachilar va buddaviylar dinlari vakillari uchun diniy aqidalarida qayd etilgan bayramlarning markazlashgan holda tashkil etilishi va o‘tkazilishi ta’minlanib, ularda ishtirok etayotgan fuqarolarning miqdori yil sayin ortib bormoqda. Konfessiya yetakchilari bir-birlarini tabriklab, bayram tadbirlarida ishtirok etishlari yaxshi an’anaga aylangan.

Hozirgi kunda respublikamizda dunyoviy va diniy ilmlarni puxta egallagan yetuk mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashgan O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Toshkent islom instituti, “Mir Arab” oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, Termiz islom instituti, 10 ta o‘rta maxsus islom bilim yurti hamda pravoslav va protestant seminariyalari faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, hududlarda maxsus ilmiy maktablar ham tashkil etilgan bo‘lib, ularda islom dini ta’limotlari o‘rganiladi, jumladan, Farg‘onada “Fiqh”, Samarqandda “Kalom” va

⁶<https://lex.uz/docs/-5491534> (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 03/21/699/0635-son)

⁷ <https://lex.uz/ru/docs/-4872355> (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.06.2020-y., 06/20/6012/0953-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son, 24.07.2021-y., 06/21/6269/0704-son, 30.12.2021-y., 06/21/45/1228-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 25.05.2024-y., 06/24/80/0364-son; 16.08.2024-y., 06/24/111/0623-son)

⁸ Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati KONSEPSIYASI. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.11.2019-y., 06/19/5876/4029-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2023-y., 06/23/75/0292-son; 08.11.2023-y., 06/23/188/0835-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son; 21.03.2025-y., 06/25/52/0262-son)

“Hadis”, Qashqadaryoda “Aqida” va Buxoroda “Tasavvuf” maktablari o‘z tinglovchilariga egadir.

Shuningdek, yurtimizda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi buyuk allomalarning hayoti va ijodini o‘rganishga mo‘ljallangan xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari ham faoliyat olib bormoqda.

Fuqarolarning maishiy diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida “Qur’oni karim va tajvid” kurslari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bugun yangi O‘zbekistonda diniy ekstremizm va terrorizm tahdidlariga qarshi kurash “Jaholatga qarshi ma’rifat” ulug‘vor g‘oyasi ostida amalga oshirilmoqda va bu jahon hamjamiyatining e’tiborini o‘ziga tortmoqda.

Ma’rifatli kishi jaholat, nodonlik va yovuzlikka qo‘l urmaydi. Bu jaholatga qarshi – ma’rifat tamoyilining mazmunidir. Afsuski, bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida jaholatga qarshi – jaholat bilan kurashish oqibatida nizoli vaziyatlar avj olib bormoqda. Ayniqsa, Yaqin Sharq mamlakatlarida diniy, milliy va boshqa ijtimoiy-siyosiy omillar negizida yuzaga kelgan qurolli to‘qnashuvlar oqibatida yuzlab odamlarning qurbon bo‘layotgani, minglab kishilarning o‘z boshpanalaridan ayrilib, tug‘ilib o‘sgan yurtlarini tashlab ketishga majbur bo‘layotgani kabi ayanchli jarayonlarning guvohi bo‘lmoqdamiz. Ushbu holat davlatning katta yoki kichikligi, dini va millatidan qat’iy nazar, tinchlik va barqarorlik naqadar aziz ne’mat ekanini yana bir bor isbotlab bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita huzurida Konfessiyalar ishlari kengashi faoliyat yuritmoqda. Kengashning tarkibida O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisi, Kengash raisi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘zbekiston yeparxiya mitropoliti, Rim-katolik cherkovi yepiskopi, Arman apostollik cherkovi ruhoniysi, To‘liq Yevangel xristianlari markazi raisi, Yevangel xristian baptistlar cherkovlari uyushmasi raisi, Toshkent shahar Yettinchi kun xristian adventistlar cherkovi Rahbari, Toshkent shahar Novoapostol cherkovi rahbari, Toshkent shahar Nemis Yevangel-lyuteran cherkovi rahbari, «Golos Bojiy» xristian cherkovi rahbari, «Iyegova guvohlari» cherkovi rahbari, O‘zbekiston Bibliya jamiyati Bosh kotibi, Toshkent shahar yahudiylar jamoasi raisi, Toshkent shahar baxoiylar jamoasi raisi, Budda ibodatxonasi ruhoniysi va Toshkent shahar Krishnani anglash jamiyati raisi a’zodirlar. Kengashning asosiy maqsadi va vazifasi bu...

davlat, diniy konfessiyalar va turli dinlarga e’tiqod qiluvchi fuqarolar o‘rtasida doimiy va samarali muloqotni o‘rnatib borish;

– mamlakatdagi barcha diniy konfessiyalarning orasida o‘zaro hurmat va ijtimoiy totuvlikni yanada mustahkamlash;

–jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar aholi o’rtasida o’zaro tushunish va diniy bag’rikenglik g’oyalarini keng targ’ib qilish;

– fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash, konfessiyalararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashga ko’maklashishdan iborat.

2025 yilning 25 fevral kuni O’zbekiston Respublikasining "O’zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida"⁹gi Qonuni qabul qilindi.

Mazkur konsepsiya loyihasining ishlab chiqilishida ham diniy konfessiyalar vakillari faol ishtirok etdilar hamda o’z fikr-mulohazalarini nafaqat parlament yig’ilishlarida, balki rasmiy sayt va ijtimoiy tarmoq sahifalarida ham bayon qildilar.

Ta’kidlash joizki, Konsepsiya davlatchiligimiz rivojining boy milliy-tarixiy tajribasiga va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda ishlab chiqilgan bo’lib, ko’pmillatli va ko’pkonfessiyali O’zbekistonda umumjamiyat manfaatlarini ro’yobga chiqarish, demokratiya, dunyoviylik, erkinlik, tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik asosida o’zaro totuvlikda yashash hamda izchil taraqqiy etish uchun zarur barqaror muhitni ta’minlashga qaratilgan o’ta muhim hujjatdir.

Toshkentda qurilayotgan ulkan megaloyiha Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham ma’naviy-ma’rifiy targ’ibot ishlarini olib borish, ajdodlarimizning boy ilmiy merosini keng targ’ib qilish, islom dinining tinchlikparvarlik va bag’rikenglik mohiyatini namoyon etish borasida noyob platforma vazifasini bajaradi.

Komil inson bu nafaqat diniy bilimga ega, balki ijtimoiy faol, axloqan pok, bilimli, vatanparvar shaxsdir. Bu tushuncha islom falsafasida, xristian axloqshunosligida, buddaviylikda va boshqa dinlarda turlicha izohlangan bo’lsa-da, mohiyat bir: "Insonni ezgulik sari yetaklash."

Islomda komil inson "insoni komil" sifatida adolatli va halol yashovchi sifatida talqin qilinadi. Xristianlikda komillik muhabbat va kechirim orqali mukammallikka yetishish sifatida qaraladi. Buddaviylikda esa bu ruhiy poklanish va nafsni yengish orqali ma’naviy yuksalishdir.

Demak, dinlararo muloqot ushbu umumiy g’oyalarni birlashtirib, komil insonni tarbiyalashning umuminsoniy modelini yaratishga xizmat qiladi.

⁹ <https://lex.uz/docs/-7404923> O’zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati KONSEPSIYASI. O’zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-fevraldagi O’RQ-1037-sonli [Qonuniga](#) ILOVA. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.02.2025-y., 03/25/1037/0187-son)

XULOSA (CONCLUSION)

Dinlararo muloqot va tolerantlik bugungi globallashuv davrida insoniyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Turli din vakillari o'rtasidagi muloqot nafaqat diniy totuvlikni, balki jamiyatda tinchlik, o'zaro hurmat va barqarorlikni ta'minlaydi. Tolerantlik g'oyasining ildizlari qadimiy diniy ta'limotlarda Qur'on, Injil va Tavrotda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularning barchasi insonni yaxshilik, bag'rikenglik va adolat sari chorlaydi.

Diniy bag'rikenglikning ijtimoiy va madaniy hayotdagi ahamiyati beqiyosdir. U millatlararo totuvlik, madaniyatlararo muloqot va fuqarolik hamjihatligining poydevorini yaratadi. Shu boisdan ham zamonaviy xalqaro tashkilotlar UNESCO, BMT, YXHT, IHT kabi institutlar dinlararo muloqotni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Ularning faoliyati diniy ziddiyatlarni kamaytirish, ekstremizm va ksenofobiyaning oldini olishga qaratilgan.

O'zbekiston tajribasi ham diniy bag'rikenglikning amaliy namunasi sifatida e'tirof etiladi. Mamlakatda turli konfessiyalar o'rtasida tinchlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga, barcha fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Dinlararo muloqot orqali komil insonni tarbiyalash esa bu jarayonning eng yuksak maqsadidir. Zero, haqiqiy komillikka inson o'z e'tiqodida sobit, ammo boshqalarning e'tiqodiga hurmat bilan qaragan taqdirdagina erishadi. Shu bois dinlararo muloqot va tolerantlik g'oyalari insoniyatning barqaror kelajagini ta'minlaydigan eng muhim qadriyatlardandir.

BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o'sib kelayotgan yosh avlod qo'lida. Yoshlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do'stlik, o'zaro ishonch va hurmat kabi olijanob g'oyalarni singdirish dolzarb vazifamizdir.

Bu borada "Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati"ni ta'xis etish va uning qarorgohini O'zbekistonda joylashtirish taklifini ilgari suramiz. Biz jamiyatimizdagi bag'rikenglik siyosatini izchil amalga oshirmoqdamiz."¹⁰

Prezident Sh.Mirziyoyevning ushbu fikri O'zbekiston tashqi va ichki siyosatining muhim tamoyillarini tinchlik, bag'rikenglik, muloqot va yoshlar faolligini ifodalaydi. Bu tashabbus nafaqat O'zbekiston uchun, balki butun jahon hamjamiyati uchun tinchlik madaniyatini mustahkamlash yo'lida muhim qadamlardan biridir.

¹⁰ <https://president.uz/oz/lists/view/8525> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi. 23.09.2025

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. <https://president.uz/oz/lists/view/8525> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi. 23.09.2025
2. Quro'ni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur. Toshkent: -2018 Baqara surasi 205-oyat. 32 bet
3. Muqaddas kitob. Toshkent 2018. Mark injili. Insonni nima harom qiladi? 7:18 1210- bet
4. Quro'ni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur. Toshkent: -2018 Baqara surasi 256-oyat. 42-603 bet
5. Quro'ni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur. Toshkent: -2018 Hujuror surasi 13-oyat. 517- bet
6. <https://lex.uz/docs/-6445145> (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
7. <https://lex.uz/docs/-5491534> (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 03/21/699/0635-son)
8. <https://lex.uz/ru/docs/-4872355> (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.06.2020-y., 06/20/6012/0953-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son, 24.07.2021-y., 06/21/6269/0704-son, 30.12.2021-y., 06/21/45/1228-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 25.05.2024-y., 06/24/80/0364-son; 16.08.2024-y., 06/24/111/0623-son)
9. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati KONSEPSIYASI. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.11.2019-y., 06/19/5876/4029-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2023-y., 06/23/75/0292-son; 08.11.2023-y., 06/23/188/0835-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son; 21.03.2025-y., 06/25/52/0262-son)
10. <https://lex.uz/docs/-7404923> O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati KONSEPSIYASI. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-fevraldagi O'RQ-1037-sonli [Qonuniga](#) ILOVA. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.02.2025-y., 03/25/1037/0187-son)